NUTQ MADANIYATINING ILMIY ASOSLARI VA O‘QITUVCHI FAOLIYATIDAGI O‘RNI

https://doi.org/10.70728/orien.v07.i02.056

Umidaxon Boltaboyeva
Yorqinoy Hotamova
QDU

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutq madaniyatining ilmiy-nazariy asoslari, uning tilshunoslik, pedagogika va psixologiya fanlari, aktyorlik san’atidagi sahnaviy nutq bilan bog‘liq jihatlari hamda pedagogik faoliyatdagi o‘rni tahlil etiladi. Nutq madaniyatining asosiy mezonlari - to‘g‘ri talaffuz, aniqlik, mantiqiylik, so‘z ta’sirchanligi va uslubiy mosligi kabi bir necha jihatlar ilmiy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, o‘qituvchining kasbiy mahoratini oshirishda va shakllantirishda nutq madaniyatining ahamiyati, pedagogik muloqotdagi roli va uning ta’lim-tarbiya jarayonidagi ta’siri ilmiy xulosalar asosida asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: nutq madaniyati, adabiy til me’yorlari, pedagogik mahorat, pedagogik muloqot, nutq texnikasi, tarbiyaviy ta’sir

SCIENTIFIC BASIS OF SPEECH CULTURE AND ITS ROLE IN TEACHER ACTIVITY

Umidakhon Boltaboyeva
Yorqinoy Hotamova
KSU

Abstract: This article analyzes the scientific and theoretical foundations of speech culture, its aspects related to stage speech in linguistics, pedagogy and psychology, acting, and its role in pedagogical activity. The main criteria of speech culture - correct pronunciation, accuracy, logicality, expressiveness of words and stylistic compatibility - are scientifically covered. Also, the importance of speech culture in improving and forming the professional skills of a teacher, its role in pedagogical communication and its impact on the educational process are substantiated on the basis of scientific conclusions.

Keywords: speech culture, literary language norms, pedagogical skills, pedagogical communication, speech technique, educational impact

(cc) BY

Barchaga ma’lumki, jamiyatimz taraqqiyotida til va nutqning o‘rni beqiyosdir. Insoniyat tafakkuri, uning ma’naviyati va madaniyati, avvalo, uning o‘zini nutqida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, pedagogik faoliyatda, xoh u tarbiyachi bo‘lsin, xoh murabbiy bo‘lsin, nutq uning asosiy mehnat quroli hisoblanadi. O‘qituvchining bilim darajasi ham, uning dunyoqarashi, kasbiy mahorati hamda shaxsiy madaniyati uning nutqi orqali o‘quvchilarga ta’sir ko‘rsata oladi. Shu boisdan nutq madaniyati masalasi nafaqat tilshunoslik, balki pedagogika, psixologiya va madaniyatshunoslikb xattoki aktyorlik san’atida o‘tiladigan Sahna nutqi fanlarining ham dolzarb muammosi hisoblanadi.

Nutq madaniyati masalasi haqida gapirar ekanmiz, u nafaqat tilshunoslik, balki pedagogika, psixologiya va ritorika kabi fanlarning ham asosiy tadqiqot ob’ekti hisoblanadi. Uning nazariy asoslarini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, ko‘p asrlik ilmiy an’analarga borib taqaladi. Buyuk ma’rifatparvar, yozuvchi Abdulla Avloniy ta’kidlab o‘tganidek, “Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot masalasidir”. Ushbu ajoyib fikr pedagog nutqining mas’uliyatini yanada oshiradi. Chunki o‘qituvchi talabalarga nafaqat bilim beruvchi, balki u ma’naviy yetakchi hamdir.

Xozir biz nutq madaniyati tushunchasi va uning ilmiy-nazariy asoslarini tahlil qilib chiqamiz**.** Nutq madaniyati bu - adabiy til me’yorlariga tayangan holda fikrni aniq, tiniq, ravon, mantiqiy va so‘z ta’sirchanligi holatida ifoda etish qobiliyatidir. U til birliklaridan maqsaddan kelib chiqqan holda foydalanish san’ati sifatida namoyon bo‘ladi.

Nutq madaniyatining asosiy manbai tilshunoslik hisoblanadi. Adabiy tilimiz me’yorlarini belgilash hamda uni tartibga solish tilshunoslikning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. O‘zbek adabiy tilining shakllanishi va taraqqiyotida buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiyning xizmatlari beqiyosdir. U o‘zining asarlari orqali turkiy tilimizning imkoniyatlarini keng namoyon qildi va uning adabiy me’yorlarini mustahkamlay oldi. Jadid ma’rifatparvarlarimizdan Abdurauf Fitrat ham til madaniyati va nutqning ravonligi masalalariga alohida e’tibor qaratgan. Zamonaviy tilshunosligimizda esa adabiy tilning me’yorlari fonetik, leksik, grammatik va uslubiy jihatdan tadqiq etiladi. Nutq madaniyati quyidagi me’yorlarga asoslanib o‘rganiladi: Orfoepik me’yor - so‘zlarning to‘g‘ri talaffuz qilinishi; Orfografik me’yor - so‘zlarning to‘g‘ri yozilishi; Leksik me’yor - so‘zlarning ma’nosiga mos qo‘llanilishi; Grammatik me’yor - qoidalarga muvofiq tuzilish; Uslubiy me’yor - nutqning vaziyat va maqsadga mosligi.

Nutq inson tafakkuri bilan uzviy bog‘liqdir. Psixolog olim Lev Vigotskiy nutq va tafakkurning bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqligini ilmiy jihatdan asoslab bera olgan. Uning ta’limotiga ko‘ra, nutq shaxsning kognitiv rivojlanishida markaziy o‘rin tutadi. Masalan o‘qituvchi nutqi o‘quvchining: diqqatini jamlash, xotirasi faollashuvi, emotsional holati, o‘quv motivatsiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

(cc) BY

Dars o‘tish jarayonida talaba uchun o‘qituvchining nutqi asosiy axborot manbai hisoblanadi. Nutqning ravonligi, talaffuzning tiniqligi va aniqligi o‘quv materialining to‘g‘ri o‘zlashtirilishiga xizmat qiladi. Murakkab nazariy tushunchalarni talabalarga sodda va obrazli misollar orqali tushuntirish o‘qituvchining nutqiy mahoratiga bog‘liq.

O‘qituvchining har bir so‘zi talaba uchun tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lishi kerak. Uning nutqida milliy qadriyatlar, an’analarimiz, ma’naviy-axloqiy tamoyillar aks eta olishi kerak. Shaxsiy namuna sifatida o‘qituvchi doimo adabiy til me’yorlariga qat’iy amal qilishi shart. O‘qituvchidao‘zining yuksak nutq madaniyatini shakllantirish uchun quyidagilar muhim, bunda adabiy til me’yorlarini muntazam o‘rganishi, badiiy va ilmiy adabiyotlar mutolaasi; notiqlik san’ati mashqlari; ovoz, intonatsiya va diksiya ustida ishlash; o‘z nutqini tahlil qilish va kamchiliklarni bartaraf etishi shart.

“Aktyorlik san’ati yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun ham toza va ravon nuty birlamchi turadi, sababi u sahnada tomoshabin bilan jonli muloqot qiladi. Bugungi kunda sahna nutqini rivojlantirishda zamonaviy metodlar, innovatsion texnologiyalar va fonetik treninglardan keng foydalanish teatr ta’limining ajralmas qismiga aylanmoqda. Teatr oliygohlari va studiyalarida ovoz apparatini himoya qilish, nafasni boshqarish va so‘z energiyasini to‘g‘ri taqsimlashga doir mashg‘ulotlar muntazam o‘tkazilishi zarur”.[1]

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, nutq madaniyati - pedagogik mahoratning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uning ilmiy asoslari tilshunoslik, pedagogika va psixologiya fanlariga tayanadi. O‘qituvchi, murabbiy faoliyatida nutq madaniyati ta’lim samaradorligini oshiradi, talabalar uchun tarbiyaviy ta’sirni kuchaytiradi va talabalarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantiradi.

Shu sababdan zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchining nutqiy mahoratini oshirishga alohida e’tibor qaratmog‘i zarur. Nutq madaniyati yuksak bo‘lgan pedagogik jamiyatda intellektual va ma’naviy taraqqiyotni ta’minlovchi muhim shaxs sifatida namoyon bo‘ladi, degan umiddamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To‘xtasinov A. Sahna nutqi asoslari. - Toshkent: San’at nashriyoti, 2017. - 215 b.

2. Karimova D. Ovoz madaniyati va so‘z san’ati. - Toshkent: O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti nashriyoti, 2019. - 180 b.

3. Qodirov B. Aktyorlik mahorati va nutq texnikasi. - Farg‘ona: FarPI nashriyoti, 2020. - 240 b.

4. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. - Toshkent: Ma’naviyat, 1999.

5. Hojiyev A. *O‘zbek tili stilistikasi*. - Toshkent: O‘qituvchi, 2002.

[1] U. Boltaboyeva, “Sahna nutqi texnikasi: ovoz, nafas va diksiya uyg‘unligi”, Oriental art and Culture jurnali, 2025 yil, 200-208 bb.noyabr soni.

(cc) BY

6. Qo‘ng‘urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. *Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari*. - Toshkent: O‘qituvchi, 1992.

7. U.Boltaboyeva. Sahna nutqi., Darslik-2023y. Toshkent-Innovatsion-Ziyo/

(cc) BY